



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING STRUKTURAVIY-KOMPONENTLI TAVSIFI

Nursulton Shayxislamov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, dekan o'rinbosari, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari hamda uning tarkibiy komponentlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Lingvistik kompetensiya zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, uning leksik, grammatik, imloviy, punktuatsion, uslubiy hamda matn bilan ishlash ko'nikmalaridan tashkil topganligi asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur komponentlarning o'zaro integratsiyasi va o'quvchilarning kommunikativ faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari lingvistik kompetensiyani tizimli va kompleks shakllantirish o'quvchilarning nutqiy faoliyati samaradorligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda til vositalaridan amaliy foydalanish darajasini yuksaltirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: lingvistik kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, ona tili ta'limi, leksik ko'nikma, grammatik ko'nikma, imlo savodxonligi, punktuatsiya, uslubiy kompetensiya, matn bilan ishlash, kommunikativ faoliyat.

СТРУКТУРНО-КОМПОНЕНТНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Нурсултон Шайхисламов

Чирчикский государственный педагогический университет, заместитель декана,
независимый исследователь

Аннотация

В данной статье проанализированы теоретические основы формирования лингвистической компетенции учащихся в обучении родному языку, а также её структурные компоненты. Лингвистическая компетенция рассматривается как важнейший компонент современного компетентного подхода и обосновывается как совокупность лексических, грамматических, орфографических, пунктуационных, стилистических умений и навыков работы с текстом. Кроме того, раскрывается взаимосвязь данных компонентов и их значение в коммуникативной деятельности учащихся. Результаты исследования показывают, что системное и комплексное формирование лингвистической компетенции способствует повышению эффективности речевой деятельности учащихся, развитию навыков самостоятельного мышления и совершенствованию практического использования языковых средств.

Ключевые слова: лингвистическая компетенция, компетентный подход, обучение родному языку, лексические навыки, грамматические навыки, орфографическая грамотность, пунктуация, стилистическая компетенция, работа с текстом, коммуникативная деятельность.

STRUCTURAL AND COMPONENT-BASED DESCRIPTION OF THE FORMATION OF STUDENTS' LINGUISTIC COMPETENCE IN MOTHER TONGUE EDUCATION

Nursulton Shayxislamov

Chirchik State Pedagogical University, Deputy Dean , Independent Researcher

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations and structural components of the formation of students' linguistic competence in mother tongue education. Linguistic competence is interpreted as an essential component of the modern competency-based approach and is substantiated as consisting of lexical, grammatical, orthographic, punctuation, stylistic, and text-processing skills. The study also highlights the interrelationship of these components and their significance in students' communicative activities. The findings indicate that the systematic and comprehensive development of linguistic competence contributes to improving students' speech performance, fostering independent thinking skills, and enhancing the practical use of language resources.

Keywords: linguistic competence, competency-based approach, mother tongue education, lexical skills, grammatical skills, orthographic literacy, punctuation, stylistic competence, text processing, communicative activity.

XXI asr ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nazariy bilimlarni egallashi bilan bir qatorda, ularni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatini ham rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu sababli bugungi kunda ona tili ta'limining mazmuni ham yangilanib, o'quvchilarning til haqidagi bilimlarini amaliy nutqiy faoliyat bilan integratsiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Til inson tafakkurining mahsuli va jamiyatdagi eng muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. O'quvchilarning til vositalaridan samarali foydalanish qobiliyati ularning nafaqat akademik muvaffaqiyati, balki ijtimoiy hayotdagi faolligini ham belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, lingvistik kompetensiyani shakllantirish ona tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Lingvistik kompetensiya tushunchasi tilshunoslik va pedagogika fanlarida turlicha talqin qilinadi. N. Xomskiy ushbu tushunchani til tizimi haqidagi ichki bilimlar majmui sifatida izohlasa, keyinchalik D. Haymes uning kommunikativ jihatini ham kengaytirib, til vositalaridan muayyan vaziyatda o'rinli foydalanish qobiliyatini nazarda tutgan. Zamonaviy pedagogik talqinlarda esa lingvistik kompetensiya o'quvchining til birliklari haqidagi bilimlari, nutqiy tajribasi va kommunikativ faoliyatda ushbu bilimlarni qo'llay olish malakalarining integratsiyasi sifatida qaraladi.

Ona tili ta'limida lingvistik kompetensiyani shakllantirish jarayoni o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, grammatik bilimlarini mustahkamlash, yozma va og'zaki nutq madaniyatini rivojlantirish hamda matn yaratish ko'nikmalarini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlash va ularning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Lingvistik kompetensiya o'quvchilarning til tizimi haqidagi bilimlari, til birliklarini anglash darajasi va ulardan kommunikativ faoliyatda samarali foydalanish qobiliyatini ifodalovchi murakkab integrativ hodisa hisoblanadi. Mazkur kompetensiya faqatgina grammatik qoidalarni bilish yoki lug'at boyligiga ega bo'lish bilangina cheklanmaydi. U tilning barcha sathlari bo'yicha shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli lingvistik kompetensiyani tarkibiy komponentlar asosida tahlil qilish uning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Lingvistik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri leksik ko'nikmalardir. Leksik ko'nikmalar o'quvchining lug'at boyligiga egaligi, so'zlarning ma'no nozikliklarini tushinishi va ularni nutq jarayonida maqsadga muvofiq qo'llay olishi bilan tavsiflanadi. So'z boyligi inson tafakkurining rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'quvchining fikrni aniq va ravon ifodalashida asosiy vosita vazifasini bajaradi. Ona tili darslarida sinonimlar, antonimlar, omonimlar, paronimlar, frazeologik birliklar hamda terminologik leksika ustida ishlash o'quvchilarning lug'at zaxirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada ular bir xil mazmunni turli til vositalari orqali ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa nutqning

ta'sirchanligi va mantiqiylikini oshiradi.

Lingvistik kompetensiyaning ikkinchi muhim komponenti grammatik ko'nikmalardir. Grammatik bilimlar tilning ichki qonuniyatlarini anglash va ularni amaliy nutqda qo'llash uchun zarur asos hisoblanadi. O'quvchilarning so'z turkumlari, grammatik kategoriyalar, gap bo'laklari hamda sintaktik konstruksiyalar haqidagi bilimlari ularning grammatik kompetensiyasini shakllantiradi. Grammatik me'yorlarga amal qilish fikrning aniqligi va tushunarligini ta'minlaydi. Ayniqsa, murakkab gaplarni tuzish, bog'lovchi vositalardan foydalanish, sintaktik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri ifodalash kabi malakalar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Grammatik ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmagan holatlarda esa nutqda turli xatolar yuzaga keladi va kommunikativ maqsadning to'liq amalga oshishiga to'sqinlik qiladi.

Lingvistik kompetensiya tarkibida imlo savodxonligi ham alohida ahamiyatga ega. Yozma nutqning sifati, avvalo, orfografik me'yorlarga rioya etilishiga bog'liq. Imlo savodxonligi o'quvchilarning adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri yozish malakasini ifodalaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan sharoitda yozma muloqotning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli o'quvchilarning yozuv madaniyatini shakllantirish ona tili ta'limining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Imlo qoidalarini o'rgatishda nazariy bilimlarni amaliy mashqlar bilan uyg'unlashtirish, diktantlar, ijodiy yozma ishlar va tahrir mashqlaridan foydalanish samarali natijalarni ta'minlaydi.

Punktuatsion ko'nikmalar ham lingvistik kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tinish belgilarining to'g'ri qo'llanilishi yozma nutqning mazmunini aniq ifodalash va fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ko'rsatishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Punktuatsiya nafaqat texnik yozuv qoidasi, balki matnning semantik va stilistik yaxlitligini ta'minlovchi omildir. O'quvchilar gap mazmuniga qarab tinish belgilarini tanlashni o'rganishlari zarur. Chunki biror tinish belgisining noto'g'ri qo'llanishi matn mazmunining o'zgarishiga yoki noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun punktuatsion savodxonlikni rivojlantirish o'quvchilarning yozma nutq madaniyatini yuksaltirishning muhim sharti hisoblanadi.

Lingvistik kompetensiyaning navbatdagi komponenti uslubiy ko'nikmalardir. Til vositalarini kommunikativ vaziyat, muloqot maqsadi va adresat xususiyatlariga mos ravishda tanlay olish uslubiy kompetensiyaning asosini tashkil etadi. O'quvchilar ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy va so'zlashuv uslublarining o'ziga xos jihatlarini bilishlari hamda ulardan amaliy faoliyatda foydalanishlari zarur. Uslubiy ko'nikmalar o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantiradi, kommunikativ vaziyatga mos til birliklarini tanlashga yordam beradi va nutq samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, turli janrdagi matnlarni yaratish jarayonida uslubiy kompetensiyaning ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Lingvistik kompetensiyaning eng yuqori amaliy ko'rinishlaridan biri matn bilan ishlash ko'nikmalaridir. Zamonaviy ta'limda matn markaziy didaktik birlik sifatida qaralmoqda. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilar axborotni qabul qilish, tahlil etish, umumlashtirish, baholash va yangi matn yaratish kabi murakkab kognitiv faoliyatlarni amalga oshiradilar. O'quvchilarning matn mazmunini tushunishi, asosiy g'oyani aniqlashi, matndagi til vositalarining funksiyasini tahlil qilishi va mustaqil matn yaratishi lingvistik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini ko'rsatadi. Shu bois ona tili darslarida matn ustida ishlashga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Ta'kidlash joizki, lingvistik kompetensiyaning yuqorida qayd etilgan barcha komponentlari o'zaro uzviy bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi. Leksik boylik grammatik vositalar yordamida ifodalanadi, imlo va punktuatsion savodxonlik yozma nutq sifatini ta'minlaydi, uslubiy ko'nikmalar esa barcha til birliklarining kommunikativ vaziyatga mos ravishda qo'llanishiga xizmat qiladi. Matn bilan ishlash jarayonida esa ushbu komponentlarning barchasi kompleks ravishda namoyon bo'ladi. Demak, lingvistik kompetensiyaning shakllantirish jarayoni alohida bilim va ko'nikmalarni o'rgatish emas, balki ularni yagona tizim sifatida rivojlantirishni talab etadi.

XULOSA

Lingvistik kompetensiya ona tili ta'limining muhim natijalaridan biri bo'lib, o'quvchilarning til haqidagi nazariy bilimlari va amaliy nutqiy faoliyatini o'zida mujassamlashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvistik kompetensiya leksik, grammatik, imloviy, punktuatsion, uslubiy hamda matn bilan ishlash ko'nikmalarining integratsiyasi asosida shakllanadi.

Mazkur komponentlarning har biri o'quvchilarning kommunikativ faoliyatida alohida vazifani bajarsa-da, ularning samaradorligi o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Shu sababli ona tili ta'limida lingvistik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida barcha tarkibiy qismlarni kompleks yondashuv asosida shakllantirish zarur.

Shuningdek, matn markazli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, kommunikativ topshiriqlar tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi. Natijada o'quvchilarda adabiy til me'yorlariga amal qilish, fikrni aniq va ravon ifodalash hamda turli kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatlari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965.
2. Hymes D. On Communicative Competence // Pride J.B., Holmes J. (Eds.). Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269–293.
3. Saussure F. de. Course in General Linguistics. – New York: McGraw-Hill, 1966.
4. Vygotsky L. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
5. Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. – London: Edward Arnold, 1985.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
7. G'ulomov A., Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2009.
8. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Ona tili fanidan Milliy o'quv dasturi. – Toshkent, 2023.